

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: NAZAROV FARRUX XOLIYOROVICH

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va
inshootlar seysmik mustahkamligi instituti**

fan doktori (DSc)



A'zo: OLEKSANDR MENSHYKOV

University of Aberdeen

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260061
Xulosa raqami	1066
Xulosa sanasi	19.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy. Guvohnoma: MAS № 0000306, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Mexanika va matematik modellash
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60530600
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000306, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60530600 – Mexanika va matematik modellash
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60530600 – Mechanics and Mathematical Modeling
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60530600 – Механика и математическое моделирование
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Mexanik
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Mexanika va matematik modellashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha universitetda zamonaviy va tizimli boshqaruv modeli shakllantirilgani aniqlandi. Universitetning tashkiliy tuzilmasi hamda ta'lim dasturini rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli rivojlantirish rejasi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va belgilangan talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolat va funksiyalari aniq belgilangan. Ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari, ta'lim sifatini muntazam monitoring qilish tartiblari, shuningdek mehnat bozori ehtiyojlari va ilmiy rivojlanish tendensiyalarini o'rganish mexanizmlari joriy etilgani tasdiqlandi. Muhandislik va agrotexnologiyalar yo'nalishlariga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasasida fundamental mexanika va matematik modellashtirish ta'lim yo'nalishini samarali rivojlantirish uchun boshqaruv tizimining izchil va tizimli tashkil etilgani ta'lim dasturining muhim ustunliklaridan biri sifatida baholandi. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish bakalavriat ta'lim dasturi amaldagi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasining 6-darajasi hamda belgilangan normativ-huquqiy talablar asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi universitetning muhandislik va agrotexnologiyalar yo'nalishidagi rivojlanish strategiyasi bilan o'zaro

uyg'unlashtirilgan bo'lib, uning maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kasbiy kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'langan. Mazkur ta'lim yo'nalishida fundamental matematik tayyorgarlikni nazariy mexanika, matematik modellashtirish va zamonaviy hisoblash usullari bilan uyg'unlashtirish kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Bitiruvchiga "Mexanik" kvalifikatsiyasi berilishi inobatga olinib, ta'lim dasturi nazariy mexanika, amaliy modellashtirish va hisoblash texnologiyalarini kompleks ravishda qamrab olishi ta'minlangan. Fanlarning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligi ta'minlangan bo'lib, ularning mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalari bilan muvofiqlashtirilgan. Umuman olganda, ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida 60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish bakalavriat ta'lim dasturi milliy kadrlar tayyorlash standartlari hamda mehnat bozorining joriy va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. O'quv rejalari va fan (modul) dasturlari fundamental nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgan, talabalar bilimini baholash mezonlari aniq va shaffof shakllantirilgan hamda ularni qo'llash tartiblari belgilangan. Mexanika va matematik modellashtirish ta'lim yo'nalishida hisoblash tajribalari, matematik modellashtirishga oid amaliy topshiriqlar hamda laboratoriya mashg'ulotlarining o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Shuningdek, akademik halollik tamoyillari va talabalar bilimini xolis baholashga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar joriy etilgan. Umuman olganda, o'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha

indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida qabul jarayonlari, talabalar harakati va ularni baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, xususan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori talablariga muvofiq tashkil etilgani aniqlandi. Qabul mezonlari, tanlov tartibi, talabalar akademik harakatini boshqarish hamda baholash jarayonlari belgilangan tartiblar asosida yo'lga qo'yilgan. Tizimning Bilim va malakalarni baholash agentligi hamda HEMIS platformasi bilan integratsiyalashgani qabul jarayonlari va talabalar akademik faoliyatini boshqarishning shaffofligi, izchilligi va kuzatuvchanligini ta'minlovchi muhim ijobiy omil sifatida baholandi. Qabul parametrlari universitetning mavjud moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati va ta'lim resurslari imkoniyatlari bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan. Talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar joriy etilgan. Umuman olganda, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida universitet tomonidan 60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishini samarali amalga oshirish uchun zarur inson resurslari salohiyatini shakllantirishda tizimli yondashuv qo'llanilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilar tarkibi amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi bo'yicha belgilangan 70 foizlik talabga to'liq rioya etilgani tasdiqlandi. Yangi ta'lim yo'nalishi uchun kadrlar tarkibini bosqichma-bosqich mustahkamlash, ilmiy salohiyatni oshirish hamda malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan istiqbolli rejaning mavjudligi ta'lim dasturining muhim ijobiy jihatlaridan biri sifatida baholandi. Mexanika va matematik modellashtirish yo'nalishida professor-o'qituvchilarning fundamental ilmiy tayyorgarligi, zamonaviy hisoblash usullari va matematik modellashtirish bo'yicha kasbiy salohiyati ta'lim sifati hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish va ularni rag'batlantirish bo'yicha zarur tashkiliy mexanizmlar joriy etilgan. Umuman olganda, inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining moddiy-texnik bazasi va axborot-resurs ta'minoti akkreditatsiya standartlari hamda 60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish bakalavriat ta'lim dasturi talablariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. Universitet infratuzilmasi nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, balki uni istiqbolda rivojlantirish uchun ham yetarli imkoniyatlarga ega ekani tasdiqlandi. Zamonaviy o'quv auditoriyalari, laboratoriyalar, axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhiti ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalarini ta'minlashga xizmat qiladi. Mexanika va matematik modellashtirish ta'lim yo'nalishida yuqori unumdor hisoblash texnikasi, matematik modellashtirish va muhandislik hisob-kitoblarini bajarishga mo'ljallangan ixtisoslashgan dasturiy ta'minotning mavjudligi talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ilmiy-amaliy tayyorgarligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Umuman olganda, moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Hisoblash texnikasi va ixtisoslashgan dasturiy ta'minot bazasini mustahkamlash tavsiya etiladi.
- ✓ Kadrlar tarkibini yo'nalish bo'yicha izchil mustahkamlash maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Hisoblash resurslari va modellashtirish dasturiy ta'minotini rivojlantirish.
- ✓ Ilmiy darajali professor-o'qituvchilar ulushini izchil oshirish.

✓ Ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti" davlat muassasasida 60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari va istiqbolli rivojlantirish rejasi shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari va Milliy malakalar ramkasining 6-darajasi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga muvofiq tashkil etilgan hamda fundamental nazariy tayyorgarlik amaliy kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirilgan. Talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi normativ talablarga muvofiq yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturi malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlangan, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi belgilangan me'yorlarga mos keladi. Universitetda zamonaviy o'quv auditoriyalari, laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, raqamli ta'lim muhiti hamda matematik modellashtirish va muhandislik hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun zarur hisoblash texnikasi va dasturiy ta'minot mavjud. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) va barcha indikatorlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60530600 – Mexanika va matematik modellashtirish bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

